


Mavzu: Trapetsiya yuzasi


Ta'rif. *Ikkita tomoni parallel, qolgan ikki tomoni parallel bo'lmagan to'rtburchak **trapetsiya** deb ataladi.*




Teng yonli trapetsiya
Yon tomonlari teng
bo'lgan trapetsiya



To'g'ri burchakli
trapetsiya
Ikkita burchagi to'gri
ya'ni 90^0 ga teng




Turli tomonli
trapetsiya
Tomonlari turlicha
bo'lgan trapetsiya




BC va AD trapetsiyaning asoslari
 AB va CD trapetsiyaning yon
 tomoni

BE - balandlik




EF – Trapetsiyaning o'rta
 chizig'i

$$MN = \frac{a + b}{2}$$



$$S = \frac{a+b}{2} \cdot h$$



$$S = \frac{1}{2} d_1 \cdot d_2 \sin \alpha$$

$$S = p \cdot r$$

Ichki aylana
chizish mumkin
bo'lsa

Masalalar

1. Trapetsiyaning asoslari 14 sm va 21 sm ga, balandligi esa 8 sm ga teng. Shu trapetsiyaning yuzini toping.
2. $ABCD$ trapetsiyaning AD va BC asoslari mos ravishda 10 sm va 8 sm ga teng. ACD uchburchakning yuzi 30 sm^2 ga teng. Shu trapetsiyaning yuzini toping.
3. To'g'ri burchakli trapetsiyaning yuzi 30 sm^2 , perimetri 28 sm, kichik yon tomoni esa 3 sm ga teng. Katta yon tomonini toping.
4. To'g'ri burchakli trapetsiyada kichik asos 4 sm ga teng va kichik diagonali bilan 45° li burchak tashkil qiladi. Agar trapetsiyaning o'tmas burchagi 135° ga teng bo'lsa, uning yuzini toping.

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. Тенг ёнли трапециянинг периметри 36см, ўрта чизиғи 10см. Ён томонининг узунлигини топинг.
2. Трапециянинг ўрта чизиғи 9 см, асосларидан бири иккинчисидан 6 см қисқа. Трапециянинг катта асосини топинг.
3. Трапециянинг кичик асоси 4см. ўрта чизиғи катта асосидан 4см қисқа. Трапециянинг ўрта чизиғини топинг.
4. Трапециянинг асослари нисбати 3:5 каби, ўрта чизиғи эса 32 см бўлса, унинг катта асоси узунлиги топилсин.(см)
5. Тенг ёнли трапециянинг асослари 15 ва 25 га, баландлиги эса 15 га тенг. Трапециянинг диагоналинини топинг.

6. Тенг ёнли трапециянинг ён томони 41 га, баланлиги 40 га ва ўрта чизиғи 45 га тенг.

Трапециянинг катта асосини топинг.

7. Трапециянинг асослари 44 ва 16 га, ён томонлари эса 25 ва 17 га тенг. Трапециянинг баландлигини топинг.

8. Тенг ёнли трапециянинг ён томони 7 га, диагонали 8 га, ўрта чизиғи 4 га тенг.

Трапециянинг кичик асосини топинг.

9. Тенг ёнли трапециянинг асослари 4 ва 6 га, ён томони 5 га тенг. Трапециянинг диагоналлари узунликларининг йиғиндисини топинг.

10. Тенг ёнли трапециянинг диагонали унинг ён томонига перпендикуляр.

Трапециянинг учидан катта асосига туширилган баландлиги уни 4 ва 9 га тенг кесмаларга ажратади. Трапециянинг баландлигини топинг.

11. Тенг ёнли трапециянинг диагонали унинг ўткир бурчагини тенг иккига бўлади. Агар трапециянинг периметри 48 га, катта асоси 18 га тенг бўлса, унинг ўрта чизигини топинг.

12. Тенг ёнли трапециянинг асослари 15 см ва 49 см, ўткур бурчаги 60° га тенг. Трапециянинг периметри топилсин.(см)

13. Асослари 6 ва 14 га тенг бўлган тенг ёнли трапециянинг диагоналлари ўзаро перпендикуляр. Трапециянинг ён томонини топинг.